



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiql Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*
JABBAROV Ulug'bek Abduraxmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжаакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадиржонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохид Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*
Жаббаров Улughбек Абдурахманович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Ходжиев Расулбек Бойназар оглы – *доктор философии (PhD) по философским наукам.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Xurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuljon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*
Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Khodjiev Rasulbek Boynazar ogly – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

SOTSILOGIYA

Usmonova R.M. O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsiologik tahlili	4
--	---

JAMIYAT VA OILA

Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
Yulchiyeva D. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati	26
Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	46
Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari	60
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
Egamberdiyeva G.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
Shamsiyev O‘.B. Bolalar chapaqayligi xususida	94
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности	100
Xudoyorova M.X. Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati	109
Ashurova A.N. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari	119
Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravnlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127

Egamberdiyeva Gulxayohon Bahodir qizi,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
stajyor-tadqiqotchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim boshqaruvida raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari, afzalliklari va qo'llanilish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Maktab direktorlarining raqamli kompetentligini oshirish yo'llari va innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish mexanizmlari tavsiya etilgan.

Аннотация. В статье анализируется роль и значение цифровых технологий в развитии управленческой компетентности директоров общеобразовательных школ. Рассмотрены возможности, преимущества и области применения цифровых технологий в современном образовательном менеджменте. Рекомендованы пути повышения цифровой компетентности директоров школ и механизмы внедрения инновационных управленческих технологий.

Annotation. Annatation. This article analyzes the role and importance of digital technologies in developing the management competence of general secondary school principals. The possibilities, advantages and areas of application of digital technologies in modern educational management are considered. Ways to improve the digital competence of school principals and mechanisms for introducing innovative management technologies are recommended.

Tayanch soʻzlar: umumiy oʻrta taʼlim, maktab direktori, boshqaruv kompetentligi, raqamli texnologiyalar, raqamli kompetentlik, taʼlim menejmenti, innovatsion boshqaruv.

Ключевые слова: общее среднее образование, директор школы, управленческая компетентность, цифровые технологии, цифровая компетентность, образовательный менеджмент, инновационный менеджмент.

Keywords: general secondary education, school principal, management competence, digital technologies, digital competence, educational management, innovative management.

Kirish. Bugungi kunda taʼlim sohasida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi taʼlim muassasalarini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari direktorlari raqamli texnologiyalarni samarali qoʻllagan holda oʻz boshqaruv kompetentligini rivojlantirishlari zarur. Bu esa taʼlim jarayonini sifatli tashkil etish, oʻquvchilarning bilim darajasini oshirish va muassasaning umumiy samaradorligini taʼminlash imkonini beradi.

Jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan raqamlashtirish jarayoni taʼlim tizimi, xususan, umumiy oʻrta taʼlim maktablari boshqaruvida ham muhim oʻzgarishlarga sabab boʻlmoqda. Zamonaviy maktab direktorlari nafaqat anʼanaviy boshqaruv koʻnikmalariga, balki raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim va malakaga ham ega boʻlishlari talab etilmoqda. Raqamli texnologiyalar taʼlim muassasalari boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashib, maktab direktorlari boshqaruv kompetentligining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Taʼlim muassasalarini boshqarishning barcha bosqichlarida – rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat va baholash jarayonlarida raqamli texnologiyalar keng qoʻllanilmoqda. Bu esa oʻz navbatida maktab direktorlaridan yangi kompetentsiyalar, koʻnikmalar va malakalar shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumiy oʻrta taʼlim maktab direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning oʻrni va ahamiyatini oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Raqamli texnologiyalar – maʼlumotlarni yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlash uchun raqamli (digital) formatlardan foydalanadigan texnologiyalar majmuasi Ular axborotni nol (0) va bir (1) koʻrinishidagi ikkilik kodda ifodalaydi va bu orqali kompyuterlar, mobil qurilmalar, internet va boshqa raqamli vositalar oʻzaro axborot almashadi. Raqamli texnologiyalarning quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud:

1. *Tezkorlik.* Maʼlumotlar qisqa vaqt ichida qayta ishlanadi va yetkaziladi.

2. *Aniqlik.* Axborotning ishonchliligi va aniq saqlanishi ta'minlanadi.

3. *Moslashuvchanlik.* Har xil sohalarda va turli qurilmalarda ishlatilishi mumkin.

4. *Interaktivlik.* Foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi.

5. *Keng imkoniyatlar.* Ma'lumotlarni tahlil qilish, saqlash va tarqatishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim muassasalari boshqaruvini yangi sifat darajasiga ko'tarish imkonini beradi. Ta'lim tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni quyidagilar bilan belgilanadi:

1. *Ma'lumotlarni to'plash va saqlash samaradorligini oshirish.*

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim muassasalari faoliyatiga oid barcha ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plash, saqlash va qayta ishlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

2. *Boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish.* Raqamli texnologiyalar yordamida ko'plab boshqaruv vazifalarini avtomatlashtirish mumkin: o'quvchilar kontingentini hisobga olish, pedagoglar faoliyatini monitoring qilish, moliyaviy operatsiyalarni hujjatlashtirish va boshqalar.

3. *Kommunikatsiya tizimini takomillashtirish.* Raqamli platformalar orqali ta'lim jarayoni ishtirokchilari: o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va boshqaruv organlari o'rtasida samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish mumkin.

4. *Qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish.* Raqamli texnologiyalar ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlashtirish va qarorlar qabul qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

5. *Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlarini rivojlantirish.* Raqamli monitoring va baholash tizimlari ta'lim sifatini nazorat qilishda obyektivlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

M.Fullan ta'kidlaganidek, "Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar katalizatori vazifasini bajaradi, biroq bu o'zgarishlar texnologiyalarni joriy etish bilan emas, balki rahbarlarning yangicha fikrlashi va faoliyati bilan bog'liq"¹. Shuning uchun ham maktab direktorlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli kompetentlik – shaxsning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va yangi axborot yaratish bo'yicha bilim, ko'nikma va

M.Fullan ta'kidlaganidek, "Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar katalizatori vazifasini bajaradi, biroq bu o'zgarishlar texnologiyalarni joriy etish bilan emas, balki rahbarlarning yangicha fikrlashi va faoliyati bilan bog'liq".

¹ Fullan.M. Leading in a Culture of Change. – San Francisco: Jossey-Bass, 2020. 176 p.

malakalari majmuasi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari uchun raqamli kompetentlikning komponentlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari uchun raqamli kompetentlik

Raqamli kompetentlik komponentlari	Tavsifi
Texnologik kompetentlik	Raqamli qurilmalar, dasturiy ta'minot va internet xizmatlaridan foydalanish ko'nikmalari
Axborot bilan ishlash kompetentligi	Axborotni izlash, tahlil qilish, saqlash va qayta ishlash ko'nikmalari
Kommunikativ kompetentlik	Raqamli texnologiyalar yordamida samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yish ko'nikmalari
Raqamli xavfsizlik kompetentligi	Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, kibertahdidlardan himoyalanih ko'nikmalari
Muammolarni raqamli tarzda hal qilish kompetentligi	Raqamli vositalar yordamida turli muammolarni hal qilish ko'nikmalari

E. Veber va G. Siemens kabi tadqiqotchilar ta'lim muassasalari rahbarlarining raqamli kompetentligi quyidagi asosiy vazifalarni bajarishda yordam berishini ta'kidlaydilar²:

- ✓ ta'lim muassasasining raqamli transformatsiyasini boshqarish;
- ✓ raqamli o'quv muhitini yaratish va takomillashtirish;
- ✓ pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish;
- ✓ raqamli ta'lim resurslari va infratuzilmasini boshqarish;
- ✓ raqamli texnologiyalarni qo'llashda yuridik va etik me'yorlarga rioya qilish.

Maktablar direktorlarining raqamli kompetentlik darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi:

- ✓ raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi va tajribasi;
- ✓ raqamli ta'lim muhitini yaratish va takomillashtirish qobiliyati;
- ✓ raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarish qobiliyati;
- ✓ raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid bilimlar darajasi;
- ✓ raqamli xavfsizlik masalalarini tushunish va qo'llash darajasi.

Zamonaviy umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida raqamli texnologiyalar turli yo'nalishlarda qo'llanilmoqda. Quyida maktab

² Weber E., Siemens G. Digital Leadership: A New Perspective for Leaders in the Digital Age. – Educational Technology Research and Development, 2021. – Vol. 69. – P. 318-339.

boshqaruvida qo‘llaniladigan asosiy raqamli texnologiyalar va ularning imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi:

1. Elektron hujjat aylanish tizimlari

Elektron hujjat aylanish tizimlari maktab boshqaruvining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ular quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- hujjatlarni yaratish, saqlash va tarqatishni avtomatlashtirish;
- hujjatlar bilan ishlash vaqtini qisqartirish;
- ma‘muriy xarajatlarni kamaytirish;
- hujjatlar harakatini nazorat qilish;
- arxiv ma‘lumotlariga tezkor kirish imkoniyati.

S.Papert ta‘kidlaganidek, “Elektron hujjat aylanishi nafaqat hujjatlar bilan ishlash jarayonini soddalashtiradi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini ham oshiradi”³.

2. Ta‘lim boshqaruv axborot tizimlari

Axborot tizimlari maktab faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oluvchi keng qamrovli axborot tizimlaridir. Ular quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- o‘quvchilar, o‘qituvchilar va maktab ma‘lumotlarini tizimli saqlash;
- o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish;
- baholash va monitoring tizimlarini avtomatlashtirish;
- statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirish;
- ta‘lim sifati ko‘rsatkichlarini kuzatib borish.

3. Bulutli texnologiyalar

Bulutli texnologiyalar maktab boshqaruvida muhim o‘rin egallaydi va quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- ma‘lumotlarga istalgan joydan va qurilmadan kirish imkoniyati;
- apparat va dasturiy ta‘minot xarajatlarini kamaytirish;
- jamoaviy ishlash imkoniyatlari;
- ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash;
- IT-infratuzilmani boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish.

Google Workspace for Education, Microsoft 365 for Education kabi platforma va xizmatlar maktab direktorlari uchun boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

4. Katta ma‘lumotlar (Big Data) va tahlil vositalari

Katta ma‘lumotlar texnologiyalari ta‘lim muassasalarida to‘plangan katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Katta ma‘lumotlar texnologiyalari ta‘lim muassasalarida to‘plangan katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

³ Papert S. The Connected Family: Bridging the Digital Generation Gap. – New York: Routledge, 2018. – 224 p.

- o'quvchilar yutuqlari va muammolarini aniqlash;
- o'qitish metodikalarining samaradorligini baholash;
- resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- ta'lim natijalari va tashqi omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash;
- prognozlashtirish va strategik rejalashtirish.

5. Mobil ilovalar va messenjerlar

Mobil ilovalar va messenjerlar maktab boshqaruvida kommunikatsiya jarayonlarini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan tezkor aloqa o'rnatish, muhim ma'lumotlarni tarqatish, turli so'rovnomalarni o'tkazish, individual hamda guruhli muloqotlarni tashkil etishda ulardan samarali foydalanish mumkin.

A. Shleykher ta'kidlaganidek, "Zamonaviy maktab direktori ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak".

A. Shleykher ta'kidlaganidek, "Zamonaviy maktab direktori ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak"⁴.

Raqamli texnologiyalar maktab direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar maktab direktorlariga real vaqt rejimida ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda, qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirishda, qarorlar natijalarini prognozlashtirishda, qaror qabul qilishdagi xatolar ehtimolini kamaytirishda hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda yordam berishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini monitoring qilish va baholashda keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatini tizimli kuzatib borish, ta'lim natijalari dinamikasini tahlil qilish, ta'lim sifati ko'rsatkichlarini monitoring qilish, o'quv dasturlari samaradorligini baholash, pedagogik tajribalarni tahlil qilish va baholashda yaxshi samara beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'qituvchilar faoliyatini rejalashtirish va muvofiqlashtirish, professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantirish, o'qituvchilar faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish, pedagogik jamoa bilan ishlash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va nazorat qilish, moddiy-texnik bazani boshqarish va monitoring qilish, o'quv resurslarini taqsimlash kabi raqamli texnologiyalar maktab resurslarini boshqarish samaradorligini oshiradi.

⁴ Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – OECD Publishing, 2018. 304 p.

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning ota-onalari bilan samarali muloqotini yo'lga qo'yish, jarayonga ijtimoiy hamkorlarni jalb qilish va ular bilan hamkorlikni rivojlantirish, jamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, ta'lim muassasasi imijini shakllantirish va rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda ham yaxshi yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish:

• "Raqamli maktab boshqaruvi" mavzusida maxsus kurslar tashkil etish;

• raqamli texnologiyalarni ta'lim boshqaruvida qo'llash bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazish;

• raqamli transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha treninglar tashkil etish;

• ta'lim boshqaruvida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha master-klasslar o'tkazish.

2. Masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish:

• onlayn kurslar va vebinarlar tashkil etish;

• videodarslar va videoqo'llanmalar yaratish;

• elektron o'quv resurslari va qo'llanmalarni ishlab chiqish;

• professional tarmoqlar va forumlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

3. Amaliy tajriba almashishni yo'lga qo'yish:

• raqamli texnologiyalarni boshqaruvda samarali qo'llayotgan maktablar tajribasini o'rganish;

• tajriba almashish platformalarini yaratish;

• maktab direktorlari uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha mentorlik dasturlarini tashkil etish;

• yetakchi ta'lim muassasalarida stajirovkalar o'tash.

4. Raqamli transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish:

• har bir maktab uchun raqamli transformatsiya rejasini ishlab chiqish;

• raqamli transformatsiya jarayonlarini monitoring qilish tizimini yaratish;

• raqamli transformatsiya natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

• raqamli transformatsiya tajribalarini umumlashtirish va tarqatish.

5. Maktab direktorlari uchun raqamli kompetentlik modelini ishlab chiqish:

• raqamli kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash;

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning ota-onalari bilan samarali muloqotini yo'lga qo'yish, jarayonga ijtimoiy hamkorlarni jalb qilish va ular bilan hamkorlikni rivojlantirish, jamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, ta'lim muassasasi imijini shakllantirish va rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda ham yaxshi yordam beradi.

**Raqamli
texnologiyalardan
foydalanish
ma'lumotlar
xavfsizligi
va shaxsiy
ma'lumotlarni
himoya qilish
bilan bog'liq
muammolarni
keltirib chiqaradi.**

- raqamli kompetentlik darajalarini belgilash;
- raqamli kompetentlikni baholash vositalarini ishlab chiqish;
- raqamli kompetentlikni rivojlantirish yo'l xaritasini tuzish.

M.Labronte ta'kidlaganidek, "Maktab direktorlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish – nafaqat texnik ko'nikmalarni o'zlashtirish, balki yangicha fikrlash, yangicha boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayoni"⁵.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1. *Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish uchun vaqt yetishmasligi.* Maktab direktorlari kundalik ish jarayonida juda band bo'lib, raqamli texnologiyalarni o'rganish uchun vaqt topa olmaydilar.

2. *Motivatsiya yetishmasligi.* Ayrim direktorlar raqamli texnologiyalarning ahamiyatini to'liq anglamasliklari yoki ularga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishlari mumkin.

3. *Raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi.* Ko'pgina maktablarda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan texnik va dasturiy ta'minot yetishmaydi.

4. *Malakali mutaxassislar yetishmasligi.* Maktab direktorlariga raqamli texnologiyalarni o'rgatish va qo'llab-quvvatlash uchun malakali mutaxassislar yetishmaydi.

5. *Ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammolari.* Raqamli texnologiyalardan foydalanish ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarga yechim sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. *Malaka oshirish tizimini takomillashtirish:*
 - maktab direktorlari uchun moslashuvchan va qulay malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish;
 - masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish;
 - individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish.
2. *Motivatsiyani oshirish:*
 - raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatib berish;

⁵ Labonte M. Digital Leadership for Principals: Creating a Digital Culture. – International Journal of Educational Management, 2019. – Vol. 33, № 5. – P. 1215-1230.

o raqamli texnologiyalar sohasida yetakchilik qilayotgan maktab direktorlarini rag‘batlantirish;

o ijobiy tajribalarni ommalashtirish va targ‘ib qilish.

3. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish:

o maktablarning raqamli infratuzilmasini takomillashtirish;

o zamonaviy texnik va dasturiy ta‘minotni joriy etish;

o internet tezligini oshirish va barqaror ishlashini ta‘minlash.

4. Malakali mutaxassislarni tayyorlash:

o ta‘lim boshqaruvi sohasida raqamli texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash;

o IT-mutaxassislar va ta‘lim menejmenti mutaxassislari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

o mentorlik va kouching tizimini joriy etish.

5. Ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash:

o ma‘lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha trening va seminarlar o‘tkazish;

o xavfsizlik siyosati va protokollarini ishlab chiqish;

o raqamli xavfsizlik auditi tizimini joriy etish.

B.Klyukvina ta‘kidlaganidek, “Raqamli texnologiyalarni ta‘lim boshqaruviga joriy etish – texnik masala emas, balki tashkiliy madaniyatni o‘zgartirish masalasi”⁶. Shuning uchun ham raqamli texnologiyalarni joriy etishda nafaqat texnik, balki tashkiliy va psixologik jihatlarga ham e‘tibor qaratish zarur.

Xulosa. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar maktab boshqaruvi samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirish, ta‘lim sifatini monitoring qilish va baholash, pedagogik jamoa bilan ishlash, resurslarni boshqarish va tashqi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Maktab direktorlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va maqsadli jarayon bo‘lib, maxsus ta‘lim dasturlari, masofaviy ta‘lim imkoniyatlari, amaliy tajriba almashish, raqamli transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun malaka oshirish tizimini takomillashtirish, motivatsiyani oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar maktab boshqaruvi samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirish, ta‘lim sifatini monitoring qilish va baholash, pedagogik jamoa bilan ishlash, resurslarni boshqarish va tashqi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

⁶ Ключкина Б.Н. Цифровые компетенции руководителей образовательных организаций. – Москва: Просвещение, 2022. – 188 с.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim boshqaruviga joriy etish nafaqat texnik, balki tashkiliy va madaniy o'zgarishlarni ham talab etadi. Maktab direktorlari nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga, balki raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarish, o'zgarishlarni amalga oshirish va innovatsion fikrlash qobiliyatlariga ham ega bo'lishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirish, ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini ta'minlash va zamonaviy ta'lim boshqaruvi talablariga javob beradigan maktab rahbarlarini tayyorlash uchun muhim shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fullan M. *Leading in a Culture of Change*. – San Francisco: Jossey-Bass, 2020. – 176 p.
2. Weber E., Siemens G. *Digital Leadership: A New Perspective for Leaders in the Digital Age*. – *Educational Technology Research and Development*, 2021. – Vol. 69. – P. 318-339.
3. Papert S. *The Connected Family: Bridging the Digital Generation Gap*. – New York: Routledge, 2018. – 224 p.
4. Schleicher A. *World Class: How to Build a 21st-Century School System*. – OECD Publishing, 2018. – 304 p.
5. Labonte M. *Digital Leadership for Principals: Creating a Digital Culture*. – *International Journal of Educational Management*, 2019. – Vol. 33, № 5. – P. 1215-1230.
6. Клюквина Б.Н. *Цифровые компетенции руководителей образовательных организаций*. – М.: Просвещение, 2022. – 188 с.
7. Prensky M. *Digital Natives, Digital Immigrants*. – *On the Horizon*, 2001. – Vol. 9, № 5. – P. 1-6.
8. Bates T. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2019. – 752 p.
9. Brown C., Czerniewicz L. *Making Sense of the Digital in School Leadership*. – *British Journal of Educational Technology*, 2020. – Vol. 51, № 4.

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” MЧЖ bosmaхонасіда chop etildi.

Toshkent, Olmazor tumani, Chimbой kўchasi, 8-uy.